



PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

4(6)
—
2023





ISSN 2181-3787
E-ISSN 2181-3795

“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”
xalqaro ilmiy-metodik jurnal

«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»
международный научно-методический журнал

“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”
international scientific-methodical journal

№4(6) 2023

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

2

Jurnal haqida

Jurnalga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommabiy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlan ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.



"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali

"Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo'yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to'g'risidagi Nizom" talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo'yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

«Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале «Педагогическая акмеология» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

About the magazine

"Pedagogical akmeology" international scientific-metodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

Muassislar: "Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti,
Buxoro davlat pedagogika instituti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

Web-sayt: www.paresearchjournal.uz

Bosh muharrir:

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mas'ul kabit:

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abdullayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Madzigon Vasiliy Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)

Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

To'xsanov Qahramon Rahimbo耶ovich, filologiya fanlari doktori, dotsent

Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Sobirova Maxbuba Yusupjanovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor

Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent

Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muxtorov Erkin Mustafoyevich, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Farmonova Shabon Muhamadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD), dotsent

MUNDARIJA

07.00.00 - TARIX	6
Мубинов Мухаммадали Акобирович. Изучение политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата англоязычными авторами.....	6
13.00.00 - PEDAGOGIKA FANLARI	13
Alimardonov Zohid Shukurillaevich. Kursantlarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish samarali muloqot sharti sifatida.....	13
Axmedov Axat Axrorovich. Fizika darslarida talabalarning fanga oid kompetensiyalarini mobil dasturlar orqali shakllantirish	19
Niyozmetoza Roza Hasanovna, Qoraboyev Husniddin Kamolovich. Matn mazmunini tushunishga yordam beruvchi ish turlari	23
Muxitdinova Xadicha Sabirovna. O'zbek tilini o'qitishda mashq va topshiriqlar bilan bosqichli ishlashni tashkil etish	27
Jalolova Pokiza Muzaffarovna. Talabalarning texnik bilimlarini rivojlantirishda dasturiy ishlanmalardan foydalanish.....	36
Eshboyeva Surayyo Qahramon qizi. Tabiiy fanlarni o'qitishda kreativlikning talqini (1-4-sinf misolida).....	41
Meliqo'ziyev Dadaqo'zi Jo'raqo'ziyevich. O'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini, bilimini baholashning o'ziga xos xususiyatlari	46
Husenova Aziza Sharipovna. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida integratsiyalashgan ta'lidan foydalanishning metodik xususiyatlari.....	51
Shadiyeva Nigora Sharipovna. Dasturiy ta'lum vositalaridan foydalanish asosida bo'lajak geografiya fani o'qituvchilarining kreativligini rivojlantirishning ilmiy-metodik ahamiyati.....	57
Quliyeva Shahnoza Halimovna. Texnologik ta'lum yo'nalishida mutaxassislik fanlarini o'qitishda debat metodini qo'llash	62
Mavluda Muhammedovna Qosimova. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kreativ fikrlashga o'rgatishda o'rta arifmetik qiymatni topishga doir masalalarning o'rni	66
Eshquvvatov Ulug'bek Abdulla o'g'li. Texnika olivy ta'lum muassasalari talabalarini o'qitishda mustaqil ta'limning roli.....	71
Almardanov Jo'rabeck Bobonazarovich. Maktabgacha ta'lum tashkiloti bolalarida milliy qadriyatlarni shakllantirishning nazariy asoslari	74
Abduqodirov Jasur Baxtiyor o'g'li. Optikaga doir nostandard masalalarni yechishning metodik komponentlarini shakllantirish	78
Jabborova Saodat Zoirovna. Maktabgacha ta'lum tashkiloti kichik guruh tarbiyalanuvchilarini milliy qadriyatlar vositasida axloqiy tarbiyalashning shakl, usul va yo'llari.....	82
Axmedov Aminjon Amrullayevich. Talabalarda oilaviy qadriyatlarga ijobiy munosabatlarni rivojlantirishda qadriyat kategoriyalari mazmuni	87
Hamroyeva Sevara Nasriddinovna. STEM ta'lumi orqali talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda demonstratsion tajribaning o'rni	92
Eshchanov R.A., Shirinova D.O., Sobirov J. 7-sinf kimyo darsida kislорod mavzusini o'qitishda barqaror taraqqiyot ta'lumi tushunchalarining ahamiyati	95
Egambergen Madraximovich Xudoynazarov. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini mantiqiy fikrlashga o'rgatishning didaktik tamoyillari	100
Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi. Boshlang'ich sinflarda iqtidorli o'quvchilar bilan ishslash jarayoni pedagogik-psixologik talqini.....	104
Tojiyev Husniddin Baxtiyorovich. Kichik yoshli o'quvchilarning informatika darslarida axborotni tuzilmalashtirish mahoratlarini shakllantirishning metodik va didaktik aspektlari	108
Abdusamatov Alisher Sobirovich. O'qituvchi semiotik kompetentsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida noverbal semiotikani o'zlashtirish.....	111

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI KICHIK GURUH
TARBIYALANUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR VOSITASIDA AXLOQIY
TARBIYALASHNING SHAKL, USUL VA YO'LLARI**

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarning ahamiyatini kuchaytirish, maktabgacha ta'lism tashkilotining davlat o'quv dasturlari mazmunida oilaviy qadriyatlarga e'tibor, uning maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari, shuningdek, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarida yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashda ta'lism -tarbiya metodlari, usullari, farzand tarbiyasida ota-onasi ibrati, oilada bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va hunar, estetik va jismoniy tarbiyasida xalq hikmatlari, maqol va iboralar, hikoyatlar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlarda xalq foydalangan metod va usullarni hozirgi davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qo'llash muhimligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: oila instituti, oilaviy qadriyatlar, davlat o'quv dasturlari, o'quv-tarbiyaviy faoliyat, oilaviy hayot, ta'lism -tarbiya metodlari, usullari, ota-onasi ibrati, aqliy, axloqiy, mehnat va hunar, estetik va jismoniy tarbiya, xalq hikmatlari, maqol, ibora, hikoyat, rivoyat, ertak, doston.

**ФОРМА, МЕТОДЫ И ПУТИ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ МАЛЫХ ГРУПП
ВОСПИТАНИКОВ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ЧЕРЕЗ НАЦИОНАЛЬНЫЕ
ЦЕННОСТИ**

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы укрепления института семьи в нашей стране, укрепления значимости семейных ценностей, внимание к семейным ценностям в содержании государственных образовательных программ дошкольной образовательной организаций, ее цели и задачи, основные идеи учебно-воспитательной деятельности, а также национальные ценности узбекского народа в подготовке подрастающего поколения к семейной жизни. народные пословицы, пословицы и поговорки, наречия, поговорки, сказки в умственном, нравственном, трудовом и ремесленном, эстетическом и физическом воспитании детей, в былинах говорится о важности применения народных методов и приемов в настоящее время для подготовки молодежи к семейной жизни.

Ключевые слова: институт семьи, семейные ценности, государственные образовательные программы, учебно-воспитательная деятельность, семейная жизнь, методы, приемы воспитания, родительский пример, умственный, нравственный, трудовой и ремесленный, эстетический и физкультурный, народная мудрость, пословица, поговорка, сказка, сказка.

**FORM, METHODS AND WAYS OF MORAL EDUCATION OF SMALL
GROUPS OF PRE-SCHOOL EDUCATION THROUGH NATIONAL VALUES**

Annotation. In the article, strengthening the institution of the family in our country, strengthening the importance of family values, attention to family values in the content of state educational programs of the preschool educational organization, its goals and objectives, the main ideas of educational activity, as well as educational methods, methods, parental lesson in the upbringing of children in the national values of the Uzbek people, folk, the epics discuss the

importance of using the techniques and techniques used by the people to prepare young people for family life in the present era. 83

Keywords: Family Institute, Family Values, government curricula, educational activities, family life, educational methods, methods, parental lesson, mental, moral, labor and trade, aesthetic and physical education, folk wisdom, proverb, phrase, proverb, narrative, fairy tale, epic.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab, yangi hayot, yangi jamiyat qurishga kirishdi. O‘zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin – demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevori barpo etildi. Siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy sohalarda ulkan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Davlatimiz dunyodagi taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan mustahkam o‘rin egallay boshladi.

Mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash, oilaviy qadriyatlarning ahamiyatini kuchaytirish, nomoddiy madaniy merosimizning gumanistik missiyasini tarbiya jarayoniga chuqurroq singdirish, bolalarda intellektual va ma’naviy kapitalni shakllantirishga qaratilgan davlat siyosati bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash maqsadini amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Shuningdek, oilada bolalarni milliy qadriyatlar vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyalash tizimi samaradorligini oila–mahalla–maktabgacha ta’lim muassasasi hamkorlik mexanizmi asosida rivojlantirish zarurati dolzarblashmoqda.

Ma’lumki, maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari, shuningdek, bolaning ta’lim ning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalarini belgilab beradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonining maqsadi va asosiy prinsiplari maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonining maqsadi - bolalarda umumi kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdan iborat bo‘lib, aktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonining asosiy prinsiplari ularning salomatligini asrash va mustahkamlash, uning ehtiyojlari, shu jumladan, harakatlanish ehtiyojlarini qondirish, bolaning ijodiy qobiliyatlarini qo‘llab-quvvatlash, o‘yin orqali ta’lim berish va rivojlantirish, bolaning rivojlanishi va ijtimoiy moslashishi uchun qulay muhit yaratish, bola uchun xavfsiz muhitni ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotining oila, mahalla va maktab bilan hamkorligi, milliy madaniy an’analalar qadriyatini oshirish va boshqa millatlar madaniyatiga hurmat, boshqa millatlar madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kabilarni nazarda tutadi.

“Bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun maktabgacha ta’lim muassasalaridagi shartsharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va uning qulayligini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” kabi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda bolalarni milliy qadriyatlar vositasida ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning holati, dolzARB muammolari va pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish, ularga psixologik ta’sir ko‘rsatishning innovasion usullarini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqning asrlar davomida tarkib topgan tajribasida tarbiyaning mohiyati, uning shakl va metodlaridan yoshlarga aqliy, axloqiy, mehnat, estetik va jismoniy tarbiyada qanday foydalangani, ular yoshlarni oilaviy hayotga tarbiyalashda qanday amalga oshirilgani kabi masalalar bugungi kunda alohida dolzarblik kasb etmoqda. Xalq hamma vaqt insonni shakllantirishda tarbiyaning mohiyatini tushunib etgan. SHuning uchun ham tarbiya asosan quyidagi yo‘nalishlarda olib borilgan:

1. Oilada farzand tarbiyasi.
2. Farzand tarbiyasida ota-onanining ibrati.
3. Oilada aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasi va hunar o‘rgatish, estetik va jismoniy tarbiyani amalga oshirish shakl va metodlari.

Quyida biz mazkur yo‘nalishlarda oilada tarbiyaning shakl va metodlarini qarab chiqamiz. Xalqning tajribasidan ma’lumki, tarbiya jarayoni murakkab va ko‘p qirralidir. Zero, inson tarbiyasi bilan u tug‘ilgan kundan boshlab shug‘ullaniladi. Shuning uchun ham xalq «Suv bilan ekin o‘sar, tarbiya bilan odam» deb beziz aytmagan. Qadimgi yunon faylasufi Suqrotdan so‘radilar:

84

Siz kattalardan ko‘ra yoshlar tarbiyasiga ko‘proq ahamiyat berasiz. Buning sababi nima? Suqrot shunday deb javob berdi:

Yoshlar daraxt niholiga o‘xshaydilar, qanday eggsang shunday egiladilar, mening va’z-nasihatlarimni toshga muhr o‘ygandek ko‘ngillariga joylashtirib oladilar. Shuning uchun men ularning tarbiyasiga ko‘proq e’tibor beraman.

Agar bola boshidan tarbiya qilinmay, tarbiyaning vaqtি o‘tgan bo‘lsa, bunda ularni qayta tarbiyalash zarur bo‘ladi. Lekin xalq tarbiyaning bir kunlik emas, balki bir umrlik ekanligini doimo ta’kidlab kelgan va bu haqda hikmatli fikrlar bildirgan:

Yetti yoshga yetguncha,
Yer to‘qmog‘in yersan.
Yetmish yoshga yetguncha,
El to‘qmog‘in yersan.

Lekin bolalar tarbiyasida paydo bo‘lgan qusurlar ota-onaning vaqtida uning oldini olmaganligidandir. Bu haqda xalq tomonidan juda ko‘p hikmatlar yaratilgan:

«Beshikda tekkan kafanda ketar», «Bola tuqqanniki emas, tarbiyalaganniki», «Daraxtiga ko‘ra mevasi, ota-onasiga ko‘ra bolasi», «Katta arava qaysi yo‘ldan yursa, kichik arava shu yo‘ldan yurar», «Tog‘ erdan o‘sib chiqar, odam ota-onadan», «Erkalatsa onasi, taltayadi bolasi» kabilar shular jumlasidandir. Chunki ota-onsa farzandining tarbiyasida yo‘l qo‘ygan kamchiliklarga o‘zi aybdor ekanligini sezmaydi. SHuning uchun xalq «Charxni buzgan parrasi, qizni buzgan onasi», «O‘g‘lingni sevsang, quldek ishlat» kabi hikmatlarni yaratgan. Xalq farzand tarbiyasida eng katta kamchilik tarbiyada talabchanlikning etarli bo‘limganligidan deb ta’kidlaydi. «Ota g‘ayratli bo‘lsa, bola ibratl bo‘ladi», «Suv boshidan loyqalanadi», «Qizini tiymagan, tizini quchoqlar», «So‘nggi pushaymon-o‘zingga dushman» kabilar yuqoridagi fikrning dalilidir.

Bolalar tarbiyasidagi nuqsonlarni xalq faqat ular injiqligining sababi emas, balki tarbiyasining noto‘g‘ri olib borilganida deb bilgan. Bunda qayta tarbiyalashni tavsiya etgan. Yosh bolalarni tarbiyalashda ota-onalar va tarbiyachilarda katta mahorat lozimligini ta’kidlagan. Bunda shaxsiy ibrat ko‘rsatish muhim o‘rin tutadi. «Qovun-qovunni ko‘rib rang oladi», «Igna qayoqqa yursa, ip ham shu yoqqa yurar» kabi va boshqa maqollar buning isbotidir. SHu bilan birga xalq har bir bolaning yaxshi inson bo‘lib shakllanishida to‘g‘ri tarbiya bilan birga nasl-nasab ham muhim ahamiyat kasb etishini anglab etgan.

Bolalar tarbiyasida tarixiy tajribalardan kelib chiqqan holda xalq tarbiyaning bir butun, yaxlit tizimini yaratdi. Bunda o‘git-nasihatning ahamiyati kattaligi ta’kidlangan. Bu metod asosida tarbiyalashda xalq maqollaridan o‘rinli foydalanilgan. Qadr-qimmat, burch va ma’suliyatni his etish halollik va rostgo‘ylik, yaxshilik kabi xislatlarga ega bo‘lish lozimligi pand-nasihat vositasida uqtirilgan. Masalan: «Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom ber», «Birovga kesak otsang, u senga tosh otadi», «Birovga choh qazima, o‘zing tusharsan», «Aytgan erdan qolma, aytmagan erga borma», «Yo‘qolgan bisot topilar, yo‘qolgan baxt topilmas», «Yoshlikda eksang, qariganda o‘rasan», «Hosiling kam bo‘lsa, havodon ko‘rma», «Yomonning yaxshisi bo‘lguncha, yaxshining yomoni bo‘l», «Qadrlasang qadring oshar, qadrsizdan hamma qochar» kabilar.

O‘git-nasihat ertaklarda ham ko‘p qo‘llanilgan. Chunki ertaklar hayot maktabi bo‘lib, ularda pand-nasihatning natijasi, echimi o‘zini namoyon etadi. «Uch og‘a-ini botirlar» ertagi bunga misol bo‘la oladi.

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlarida namuna ko‘rsatish metodi ham ko‘p qo‘llaniladi. «Ravshanxon» dostonida ham ota, kampir, aka-ukalarda barcha ijobjiy xislatlar mavjud bo‘lib, insonparvarlik namunasini ko‘rishimiz mumkin.

Ammo dastlab biz xalq hikmatlari bo‘lgan maqol va iboralarda ota-onsa va oilaning boshqa a’zolari namunasini ko‘rib o‘tamiz.

Masalan, «Olti kun och qolsang ham, otang odatini qo‘yma».

«Ota g‘ayratli bo‘lsa, bola ibratl bo‘lar».

Ushbu hikmatli so‘zlarda bolalarning qanday inson bo‘lib voyaga etishi va qay darajada turmush kechirishi – ota-onaning o‘zi qanday odam bo‘lishi, o‘zini qanday tutishi, qanday murabbiylik qilishiga bevosita bog‘liq ekanligi uqtiriladi.

Ming yillar davomida dono fikr, o'tkir haqiqat, teran mazmun, so'z xazinasining boyliklarini o'zida mujassamlashtirgan son-sanoqsiz va rang-barang maqollarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. «Og'ani ko'rib ini o'sar, opani ko'rib-singil», «Tegirmonni suv buzar, odamni odam buzar» kabi maqollar ibrat-namunaga misol bo'la oladi. Chunki har bir oilada ukalar akalarga, qiz ona, opalariga qarab tarbiya oladi, voyaga etadi. Lekin yaxshi odamlar yaxshilarni ko'paytirsa, yomonlar oz bo'lsa-da yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta'sir etadi.

Demak, ota-onha va kattalarning ibratlari fe'l-atvor va xatti-harakatlari shu oiladagi bolalarga ijobjiy ta'sir qilgani kabi ularning nojo'ya xatti-harakatlari bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi yosh bolalar, o'z tabiatlariga ko'ra, ko'pincha kattalarga taqlid qiladilar. SHuning uchun ham o'z oilalaridagi kattalar misolida ijobjiy va salbiy fe'l-atvorga ega bo'lishlari mumkin.

O'zbek xalqining milliy qadriyatlarida ilgari surilgan metodlardan eng muhimlari rag'batlantirish va qoralash metodidir.

Shunday rivoyat yuradi: Bir o'g'ri qorong'i kechadi lahm qazib podshoning xazinasiga kiradi. Oltin va qimmatbaho narsalardan ro'molga tugib olib chiqib ketayotganda olmosday yaltirab turgan bir narsaga ko'zi tushadi. Uni gavhari shamchiroq deb o'laydi va qo'liga olib yalab ko'radi. Bu qotib qolgan tuz ekan. O'g'ri olgan narsalarini joy-joyiga qo'yib, yana kelgan yo'lidan chiqib ketadi.

Ertasi kun podsho xazinachisi podshoga taajjub bilan bu voqeani aytib beradi.

U ham taajjub bilan:

«Lahm kovlab xazinamga kirib, yana hech narsa olmay chiqib ketgan o'g'rilarni chaqiring. Sababini aytsalar, men ularni jazolamayman, dedi.

Xazinaga kirgan o'g'ri podshoh huzuriga kelib, xazinaga o'zi kirganligini aytdi.

Podshoh undan so'raydi:

Shuncha mehnat qilib, lahm qazib, xazinamga kirgansan-u, hech narsa olmay chiqib ketgansan, buning sababi nima?

O'g'ri aytdi:

Podshohning tuzini ta'tib ko'rdim. Tuz haqiga rioya qilib, hech narsa olmay, qaytib ketdim. Tuz haqiga rioya qilmaslik yaramas kishilar ishi, deb voqeani bayon qildi.

Podshoh o'g'riga in'om-ehson qilib, uyiga qaytishga ruxsat berdi.

Bu rivoyatda, haqiqatan ham xalqning «Bir kun tuz ichgan joyga qirq kun salom» degan hikmati ko'rinib turibdi. Hatto o'g'ri ham xalqning bu hikmatiga rioya etib, tuz yalagani uchun xazinadan hech narsa olmaydi va podshoh mukofotiga sazovor bo'ladi.

Xalqda yana shunday rivoyat yuradi: qadimgi zamonda hokimlardan biri ovga chiqadi va otboqari bilan boshqalardan uzoqlab ketib, unga:

-Ey jilovdor, hammadan ko'ra senga ishonganim uchun sirimni faqat senga bayon qilaman, ehtiyoj bo'l, hech kim sezmasin, dedi. UKamning shu kunlarda qilgan harakatidan shubhaga tushib qoldim, meni o'ldirmoqchi bo'lsa kerak. SHuning uchun men ukamni yo'q qilmoqchiman. Sen yonimdan uzoqqa ketmay meni asrab yur.

Otboqar hokim sirini saqlashga va hokimning o'zini asrashga va'da berib qasam ichdi. Lekin hokim ovdan qaytishi bilan otboqar qasamiga xiyonat qilib, hokimning ukasiga eshitganlarini bayon qildi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay hokim vafot etib, uning o'rniga ukasi hokim bo'ldi. U darrov chaqimchi otboqarni dorga osishga buyruq berdi. CHaqimchi otboqar o'zining qilgan xizmatini so'zlab, ko'p zoru tazarru qilsa ham yangi hokim qabul qilmay:

Sirni fosh qilishdan, chaqimchilikdan yomonroq gunoh yo'qdir. Akam senga ishonib sirini aytidi, sen xiyonat qilib, sirni fosh qilding, menga kelib chaqding. Akamga vafo qilmagan odam menga vafo qilarmidi? Ana endi chaqimchililingni jazosini ko'r, deb dorga ostirdi.

Bu rivoyatda xalq chaqimchilikka berilgan jazo haqiqiy hukm chiqargan.

Bunday hikoyatlar xalq ijodida ko'plab uchraydi va voqealar bayonida yaxshi xislatlari uchun mukofot olsa, rag'batlantirilsa yomon qilmishlari uchun jazolanganligi, har kim qilmishiga yarasha ajr olishi aytildi.

86 Bundan tashqari o'zbek xalqining milliy qadriyatlarida ishontirish metodidan ham foydalanilgan. Bunda, asosan ko'rgazmali, masalan, «Ona yurting omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas» maqolida inson o'z vatanida tinch-totuv hayot kechirsa, u baxtli-saodatli bo'ladi, degan fikr yotadi. Bunday maqollar xalq orasida juda ko'p. «Bir ko'rgan, yuz eshitgandan yaxshi», «YOng'oq olsang chaqib ol, ipak olsang boqib», «Jasurni-jangda, donishmandni-g'azablanganda, do'stni-muhtojlikda sina», «Ishonish bilan kasal bo'lsang, umid bilan tuzalasan» kabi maqollar insonni qat'iy ishonch bilan ish ko'rishga undaydi.

Oila-mahalla-maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligi tizimi doirasida bolalarni milliy qadriyatlar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda quyidagi tamoyillarga asoslanildi: vorisiylik, sulolaning muayyan an'analarga egaligi, bolalarning yosh xususiyati, farzandlarning gender mansubligi va o'ziga xos psixologik sifatlari, individual tarbiya va ijodiy yondashish, onaning pedagogik qobiliyati, ibrat, milliy-ma'naviy qadriyatlarga hurmat.

Bolalarni milliy qadriyatlar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonini ularga yaxshilik va yomonlik, ezzulik va yovuzlikni farqlash, jamiyatning axloqiy va madaniy qadriyatlari, shuningdek ma'naviy-axloqiy sifatlar

– saxiylik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, tinchliksevarlik haqida ma'lumot olishlariga yordam beruvchi o'zbek xalq ertaklari, topishmoq, maqol va matallar bilan to'ldirib borilishiga katta e'tibor qaratish lozim.

Bolalar yoshligidanoq xalq og'zaki ijodi janrlari bilan tanishtiriladi. Bular – ona allasi, o'yinlar – bolalar bilan ermaklar ("Chapaklar", "Qo'l harakatlari", "Hayvonlar harakatlariga taqlidlar"), maqollar, matallar, topishmoqlar, ertaklar. Xalq og'zaki ijodi bolajonlarning bilish faolligi, mustaqilligi, individualligi, hissiyotlari, atrof-olamga munosabati, nutq ko'nikmalari rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalq og'zaki ijodining turli shakllaridan maqsadli va tizimli foydalanish ularning ruhiy va jismoniy jihatdan kamol topishiga zamin yaratadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi va mahallalardagi ta'lim -tarbiya jarayonida yuqorida qayd qilingan tashkiliy va pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni amalga oshirish bolalarni alla vositasida ma'naviyaxloqiy tarbiyalashda, balog'at yoshidagi qizlar va yosh onalarda allalardan tarbiya vositasi sifatida foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish va metodik tayyorgarlikni rivojlantirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarida yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashda ta'lim -tarbiya metodlari, usullari keng qo'llanilganki, o'zining amaliyligi, avloddan-avlodga o'tib, tajribada sinalganligi va hayotiyligi bilan tarbiya tizimida katta ahamiyatga egadir. Biz bu borada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qo'llanilgan metod va usullar, farzand tarbiyasida ota-onal ibrati, oilada bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va hunar, estetik va jismoniy tarbiyasida xalq hikmatlari, maqol va iboralar, hikoyatlar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlarda xalq foydalangan metod va usullarni hozirgi davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qo'llash muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. Darslik-T:Fan va texnologiya. 2008.152b
2. Мухсиева А.Ш. Оила педагогикаси. - Т.: Адабиёт учқунлари нашриёти, 2018 й.
3. Primova F.A. Oilaviy munosabatlarni shakllan- tirishda milliy va diniy qadriyatlarning o'rni. Avto- ref.fals.fan.nomzodi. – T: 1999.
4. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri. – T.: Meros, 1993, – 223 b.
5. Boboev H., Hasanov S. Avesto – ma'naviyatimiz sarchashmasi. – T.: Adolat, 2001, – 158 b.